

IKKI YOQLAMA SOLIQQA TORTISHNING OLDINI OLISHNI TARTIBGA SOLISHDA XALQARO IQTISODIY HUQUQ TAMOYILLARI.

RAXMONOV DONYOR IXTIYORJON O'G'LII
Bank-Moliya Akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya.

Boshqa mamlakatda to‘langan soliqlarni bu mamlakatda hisobga olish yoki bir mamlakatdagi soliqqa tortish manbayini ikkinchi mamlakatda soliqqa tortishdan ozod qilish yo‘li bilan ikki marta soliqqa tortishdan qutilish mumkin. 1979-yilda BMT tomonidan manfaatdor davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarda ikki marta soliqqa tortishga barham berish uchun maxsus konvensiya ishlab chiqilgan bo‘lib, uning asosida ikki tomonlama bitimlar imzolanadi. Ular tomonidan o‘rnatilgan soliqqa tortish tartibiga ko‘ra qo‘shma korxona xorijiy ishtirokchisi o‘z foydasini xorijga o‘tkazayotgan paytda qo‘sishimcha soliqdan ozod qilinadi.

Kalit so‘zlar: *soliq huquqi, ikki yoqlama soliqqa tortish, daromad, yagona manba, soffoyda, kapital, xalqaro munosabatlar, xalqaro shartnomalar.*

Annotation.

To avoid double taxation through the source of taxation in one nation, taxes paid in another country may be accounted for here or may be excluded from taxation in the second country. Bilateral agreements are made in accordance with a particular convention that the UN created in 1979 to end double taxation between interested parties. When moving profits overseas, a foreign joint venture member is immune from further taxation under the tax restrictions imposed by these agreements.

Key words: *tax law, double taxation, income, sole source, net profit, capital, international relations, international treaties.*

Аннотация.

Налоги, уплаченные в другой стране, могут учитываться в этой стране, или освобождение от налогообложения во второй стране может быть использовано для избежания двойного налогообложения через источник налогообложения в одной стране. В 1979 году ООН разработала специальную конвенцию для устранения двойного налогообложения между заинтересованными государствами, на основе которой подписываются двусторонние соглашения. Согласно налоговым правилам, установленным этими соглашениями, иностранный участник совместного предприятия освобождается от дополнительного налога при переводе прибыли за границу.

Ключевые слова: *налоговое право, двойное налогообложение, доход, единственный источник, чистая прибыль, капитал, международные отношения, международные договоры*

Kirish.

Ma'lumki, iqtisodiy faoliyat jivojlangani sari milliy chegaralarni kesib o'tib, transchegavraviy faoliyatga aylanadi, xalqaro miqyosda ish yurita boshlaydi. Soliqqa tortish vakolati esa davlatga tegishli ya'ni davlat yurisdiksiyasidan chetga chiga olmaydi. Ushbu nomuvofiqlikdan kelib chiqadigan muammolardan biri bu ikkiyoqlama soliqqa tortishdir. Oddiyroq qilib aytganda soliq to'lovchi ro'yxatdan o'tgan davlat (soliq rezidenti) va soliq to'lovchi daromad olgan ya'ni soliq manbai bo'lgan davlatlar o'rtasida soliqqa tortish yurisdiksiyasining takrorlanishidan kelib chiqadi. Agar ikkala davlat ham soliqqa tortish bo'yicha o'z kuchlarini to'liq ishga solsalar, unda xalqaro investitsiyalar uchun soliq yuki milliy investitsiyalarga nisbatan ancha yuqori ko'rsatkichni qayd etadi. Buning oldini olish uchun hukumatlar ikki baravar soliqqa tortilmaslik choralarini ko'radi.

Ikki yoqlama soliqqa tortish tushunchasi keng ma'noli hisoblanadi. Quydagi tushunchalar ham shular jumlasidandir:

1. Turli soliqlarni daromad (kapital)ning yagona manbayidan olinishi;
2. Qo'shma korxona xorijiy ishtirokchisining foydasini xorijga o'tkazilayotgan paytda soliqqa tortish va xuddi shu foydani xorijiy ishtirokchi mamlakatida soliqqa tortilishi;
3. Sof foya (daromad) (korporatsiyalar foydasi) va undan to'lanadigan dividendlarni ular shaxsiy daromadga aylanayotgan paytda soliqqa tortish.

Boshqa mamlakatda to'langan soliqlarni bu mamlakatda hisobga olish yoki bir mamlakatdagi soliqqa tortish manbayini ikkinchi mamlakatda soliqqa tortishdan ozod qilish yo'li bilan ikki marta soliqqa tortishdan qutilish mumkin. 1979-yilda BMT tomonidan manfaatdor davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda ikki marta soliqqa tortishga barham berish uchun maxsus konvensiya ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosida ikki tomonlama bitimlar imzolanadi. Ular tomonidan o'rnatilgan soliqqa tortish tartibiga ko'ra qo'shma korxona xorijiy ishtirokchisi o'z foydasini xorijga o'tkazayotgan paytda qo'shimcha soliqdan ozod qilinadi.

Ikki yoqlama soliqqa tortish tushunchasini ya'nada soddarоq qilib izohlansa, quydagi ta'rif anchagina tushunarli va aniqroq mos kelishi mumkin. Ya'ni, Xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish deganda ikki yoki undan ortiq mamlakatda bir soliq to'lovchining faoliyati aynan bir xil yoki o'xhash soliq turi bilan bir vaqtning o'zida soliqqa tortish ifodalanadi.

Har bir mamlakatda soliq qonunchilagini kengaytirish va huquqiy jihatdan mustahkamlash, shuningdek, tovar, xizmat va kapitalni eksport qiluvchilarga soliq imtiyozlari berish bilan bog'liq tadbirlarning umumiyligi yig'indisi mamlakatning tashqi soliq siyosati deyiladi. Ushbu siyosatning qaysi tomonga yo'nalishi muayyan vaziyatdan kelib chiqadi. U byudjet daromadlarini oshirish nuqtai nazaridan yoki eksportni qo'llab-quvvatlash maqsadidan kelib chiqishi mumkin.

Har bir mamlakat uchun xalqaro soliq munosabatlarini tartibga solinishida quyidagilar asosiy vositalar hisoblanadi:

- bir yoqlama chora-tadbirlar yoki milliy soliq siyosatining chora-tadbirlari bo‘lib, boshqa mamlakatlar hukumatlari bilan hech qanaqa kelishuvlarsiz amalga oshiriladi (mamlakatda faoliyat yuritayotgan xorijliklar va mamlakatning xorijda faoliyat yuritayotgan fuqaro va korxonalariga nisbatan soliq tartibining belgilanishi);
- shartnomaviy chora-tadbirlar ikki tomonlama yoki ko‘p tomonlama asosda (xalqaro kelishuv), yoki “soliqlarning garmonlashuvi” deb nomlanadigan kelishuvlar doirasida (ya’ni, ikki yoki undan ortiq shartlashayotgan mamlakatlarning milliy soliq siyosatlarini o‘zaro muvofiqlashtirish asosida)gi chora-tadbirlar.

Tahlil natijalar.

Xalqaro iqtisodiy huquqning asosiy tamoyillari va ularning xalqaro huquqiy tartibga ta’sirini aniqlash uchun, tamoyil tushunchasiga to‘xtalish zarur, chunki u soliq tartibga solish sohasida huquqiy tartibga solishning eng muhim qismlaridan biridir. Asosiy huquqiy tamoyillar – bu “huquq tizimining asosiy, asos soluvchi tamoyillari bo‘lib, ma’lum bir ijtimoiy fenomen sifatida uning mohiyati xususiyatlarini sintetik ravishda aks ettiradi”. E.A. Pushminning fikricha esa, “belgilangan normativ qoidalar majmuasida umumiyligi, tan olingan va majburiy talablar sifatida, ular ma’lum bir huquq tizimining normativ mazmunini aks ettiradi”. Xalqaro huquq tamoyillari zamonaviy xalqaro huquq tizimining poydevorini tashkil etadi. Ular xalqaro huquq normalarini yaratish va amalga oshirish jarayonida sub’ektlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarga asos bo‘lib xizmat qiladi. Tamoyillar barcha mavjud normaning mazmunini qamrab oladi.

Tamoyillar huquqiy tartibga solishdaadolat va to‘g‘rilik haqidagi barqaror tasavvurni o‘z ichiga oladi. Asosiy yoki umumiyligi tan olingan tamoyillar xalqaro huquqda davlatlar va boshqa xalqaro munosabatlar ishtiokchilari uchun majburiy hisoblanadi. Xalqaro huquqda tamoyillar huquqiy abstraktsiya sifatida namoyon bo‘ladi, ular tartibga solish ob’ektidan keyin keladigan tizimlardagi tartibni shakllantiradi. L.P. Anufriyevaning fikricha, bu ta’kid haqiqatdan ham o‘rinli, chunki “xalqaro huquqning barcha tarmoqlari va bo‘limlarida tartibga solish ob’ekti bir xil – xalqaro hokimiyatlararo munosabatlar, shuningdek, tartibga solish usuli ham bitta, chunki u xalqaro huquqning barcha tuzilmalarining struktural bo‘linmalari uchun yagona – sub’ektlarning irodasini muvofiqlashtirish, ularning irodalarini bir-biriga moslashtirish”.

Maxsus tamoyil kategoriyasining mavjudligini asoslash uchun R.L. Bobrov va boshqa tadqiqotchilarning fikrlarini keltirish o‘rinlidir. Ular, “huquq tamoyillarini normadan ajratilgan kategoriylar sifatida, faqatgina yo‘l-yo‘riq g‘oyalarini va huquq tizimining sifat xususiyatlarini ifodalovchi kategoriylar sifatida talqin qilib bo‘lmaydi”, deb ta’kidlashadi.

Taqdim etilgan fikrlar xalqaro huquq nazariyasi tomonidan tamoyillar masalasida amalga oshirilgan tadqiqotlarning nafaqat miqdoriy natijalarini, balki sifat jihatidan ham, asosan, asosli va har tomonlama yondashuvini ko'rsatadi. Biroq, xalqaro iqtisodiy huquq sohasidagi vaziyat, tamoyillarning xilma-xilligi va ularning ro'yxatlari, tadqiqotchilarning "tamoyil" tushunchasiga bo'lgan yondashuvidagi katta farqlarni ko'rsatadi. Bu holat, o'z navbatida, xalqaro iqtisodiy huquqni o'rganishda ma'lumotlarning cheklanganligi va tadqiqotlarning yetarlicha rivojlanmaganligini anglatadi.

Shu bilan birga, xalqaro iqtisodiy huquqning tizimi va maxsus (tarmoqqa oid) tamoyillari, shuningdek, uning har bir bo'limidagi alohida tamoyillarga yondashuvlar material asosidan – obyektiv huquqdan ajratilgan holda ishlab chiqilishi kontrproduktiv hisoblanadi.

Xalqaro iqtisodiy huquq, xalqaro moliya huquqi va xalqaro soliq huquqi tamoyillari, albatta, xalqaro huquqning asosiy tamoyillari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularning o'zagidan kelib chiqadi. Ular maxsus xarakterga ega, chunki ular faqat xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish sohasiga taalluqlidir va xalqaro moliya va soliq munosabatlarini ham o'z ichiga oladi. Boshqa bir ilmiy tadqiqotchining ta'rifiga ko'ra, xalqaro huquqning umumiyligini qabil qilingan tamoyillari davlatlararo munosabatlar tizimini tashkil etuvchi eng umumiyligini imperativ (yoki nisbatan imperativ) normalarni ifodalaydi. Ular keng qo'llanilishga ega bo'lib, shuning uchun "eng muhim davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'lib, xalqaro iqtisodiy huquqning ichki tarmoqlarini tashkil etish funksiyasini bajaradi".

Iqtisodiy sohada, masalan, globalizatsiya kabi jarayonlar natijasida yuzaga keladigan paradoksal oqibatlar, xalqaro iqtisodiy huquq tamoyillarining harakati to'xtab qolishi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar va ularning huquqiy tartibga solinishida stagnantsiyaga olib kelishi mumkin emas. Bu tamoyillar ham rivojlanadi va o'zgaradi, turli yo'nalishlarni qamrab oladi va yangi mazmun bilan to'ldiradi. Masalan, zamonaviy xalqaro huquq tamoyillarining asosiy elementlaridan biri adolat, umumbashariy manfaatlar va shu kabi tushunchalardir. Ular xalqaro hamkorlikning, shu jumladan soliq tartibiga oid mavjud qoidalarida aks etadi. Bu qoidalar ichki davlat tamoyillarini va soliq huquq normalarini ham inobatga olishi kerak. Ularning asosiy tamoyillaridan biri bir martalik soliq solish tamoyilidir, bu tamoyilga ko'ra, bir xil ob'ekt bir soliq turi bo'yicha faqat bir marta, bir soliq davri ichida soliqga tortilishi mumkin.

Amalda esa, soliq to'lovchilarga bir xil daromad yoki foydadan soliq talab qilinishi mumkin bo'lgan holatlar yuzaga keladi. Bu esa, natijada, ikki yoki undan ortiq davlat tomonidan bir xil daromadga soliq solish holatlarini keltirib chiqaradi, bu esa ikki marta, ba'zida esa ko'p marta soliq solishga olib keladi. Xalqaro iqtisodiy huquq va, albatta, soliq sohasidagi xalqaro hamkorlik, xalqaro moliya va soliq

munosabatlarini tartibga solish uchun Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha bitimlar kabi vositalarni ishlab chiqdilar.

Soliq huquqi tamoyillarini o'rganayotgan mutaxassislar, iqtisodiy nazariya "klassiklari" tomonidan taklif etilgan soliq tamoyillariga murojaat qiladilar. Masalan, Adam Smith demokratiya sharoitida soliq tizimining to'rtta asosiy tamoyilini (adolat, aniqlik, qulaylik va samaradorlik) shakllantirib, asoslab berdi. Unga ko'ra, soliqni proporsional tarzda olish, ya'ni turli daromadga ega shaxslarning o'z daromadlaridan teng ulushda byudjetga to'lov kiritishlari tamoyiliga mos keladi va bu, o'sha paytda, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning bir qismi bo'lgan.

Umumiy tan olingan xalqaro huquq tamoyillari xalqaro muloqotning poydevorini tashkil etadi, shu jumladan soliq sohasida, turli mamlakatlarning huquqiy, moliyaviy va soliq tizimlarini yaqinlashtiradi. "Xorijiy elementga ega soliq munosabatlari" maxsus soliq huquqi bo'limini shakllantiradi degan radikal pozitsiyalarni ajratmasdan, xalqaro aspekt soliq huquqi tamoyillariga yangi nazar bilan qarash imkonini beradi. S.D. Smirnov, xalqaro soliq huquqining asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni ajratishni taklif qiladi:

- 1) davlatlarning suveren tengligi tamoyili va to'liq suverenitetga xos huquqlarni hurmat qilish;
- 2) soliq masalalari bo'yicha davlatlar o'rtasida hamkorlik tamoyili;
- 3) soliq diskriminatsiyasi tamoyili;
- 4) ikki marta soliq solishni taqiqlash tamoyili.

Hozirgi kunda, amalda turli davlatlar o'rtasida yuzlab soliq kelishuvlari mavjud. Umuman, soliq kelishuvlari bir nechta tur va ko'rinishga ega. Ulardan ayrimlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin: ma'muriy yordam ko'rsatish bo'yicha kelishuvlar; "chegaralangan" soliq kelishuvlari; umumiy soliq kelishuvlari; hadya va merosdan olinadigan soliqlar bo'yicha kelishuvlar; ijtimoiy sug'urta to'lovlar bo'yicha soliq kelishuvlari va boshqalar

Xulosa.

Davlatning ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishning muayyan usulini tanlashi uning soliq siyosatining maqsadlari "soliq betarafligi" tushunchasiga bog'liq. Xalqaro biznesni soliqqa tortishda bunday soliq qoidalarini yaratish, ular chet elda iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishga to'sqinlik qilmaydi, shu bilan soliq nuqtayi nazaridan tijorat qarorlarining betarafligini ta'minlaydi. Ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishning yuqorida ko'rsatilgan usullari mos ravishda import, eksport va milliy betaraflikni ta'minlaydi. Xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf etish muammosi soliqlardan qochish va soliq to'lashdan bo'yin tov lash muammosi bilan chambarchas bog'liqdir. Soliq to'lashdan bo'yin tov lashda ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf etish mexanizmini qo'llash uchun davlatlar o'rtasida choratadbirlar ko'rilmogda, shu jumladan, soliq qonunchiligidagi transfert narxlarini tartibga soluvchi

qidalar, ortiqcha kapitallashuv va imtiyozlardan foydalanish imkoniyatlarini cheklashlar shular jumlasiga kiradi. Soliqqa tortishning hududiy tizimi va soliqlarni kreditlash tizimi alohida mamlakatlarning qonunchiligi darajasida ikki yoqlama soliqqa tortish muammosini hal qilishga imkon beradi. Ikki yoqlama soliqqa tortishning oldini olish to‘g‘risidagi xalqaro shartnomalar davlatlararo darajadagi ikki-yoqlama soliqqa tortish muammosini hal etishga yordam beradi. Xalqaro amaliyotda bunday shartnomalar, odatda, chet el manbalaridan olinadigan daromadlarni soliqqa tortishdan ozod qilish bilan bir qatorda, soliqqa tortishda chekllovlar ham mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Model Tax Convention (condensed version). OECD, Paris, 2014.
2. Пушмин Э.А. О понятии основных принципов современного общего международного права// Советский ежегодник международного права. М.1980.
3. Лещенко, С.К. Правовой механизм устранения двойного налогообложения / С.К. Лещенко // Промышленно-торговое право. –2008. – № 3. – С. 64-75.
4. 2. Погорлецкий, А.И. Международное налогообложение: учебник /А.И.Погорлецкий. - СПб.: Изд-во Михайлова В.А., 2006. - С. 108.
5. Qodirjon o‘g‘li, T. B. (2024). SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ TA’SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(1), 151-153.
6. Ogli, T. B. Q. (2021). XOJALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARNING TABIIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHGA ERISHISHLARIDA SOLIQLARNING TA’SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(1), 246-250..
7. Turanboyev, B. (2024). O’ZBEKISTON FOND BOZORIDA AKSIYALAR SAVDOSINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI TAHLILI. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 5-8.
8. Turanboyev, B. (2024). ILG‘OR XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA ELEKTRON TIJORAT FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH YOLLARI. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 1-4.
9. Boburjon Turanboyev Qodirjon o‘g‘li, & Mamasoliyev Javlonbek Ortiq o‘g‘li. (2023). MAMLAKAT YALPI ICHKI MAHSULOTIGA SOLIQ TURLARINING TA’SIRI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9(9), 53–60.